

LIBOSLAR DIZAYNIDA DEKORATIV BEZAKLARNING O‘RNI VA EKOLOGIK MUAMMOLARI



S.A.G‘ulomjonova

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI “Libos dizayni” kafedrası
magistranti

M.A.Abdukarimova

Texnika fanlari doktori, dotsent, “Libos dizayni” kafedrası
professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada liboslarda dekorativ bezaklarning ahamiyati hamda ularning atrof-muhitga salbiy ta’siri yoritilgan. Jahon va milliy brendlar kolleksiyalari tahlili asosida liboslarni badiiy bezashda bezaklardan foydalanish, ularning turlari va tarkibi, shuningdek iste’molchilar didiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Ayniqsa, plastik va toshli bezaklarga alohida e’tibor qaratilib, ular ekologik ifloslanish omillari sifatida, to‘qimachilik chiqindilarining ko‘payishiga sabab bo‘luvchi hamda inson salomatligiga xavf tug‘diruvchi vositalar sifatida taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: libos, dekorativ bezak, plastik va mikroplastik ifloslanish, ekotizim, barqaror moda, PVX yelimlar, Fast Fashion.

Аннотация: Данная статья раскрывает значимость декоративных украшений в одежде и их негативное воздействие на окружающую среду. На основе анализа коллекций мировых и национальных брендов рассмотрено использование украшений в художественном оформлении одежды, их разновидности и состав, а также влияние на потребительские предпочтения. Особое внимание уделено пластиковым и каменным украшениям, которые выступают факторами экологического загрязнения, способствуют накоплению текстильных отходов и представляют угрозу для здоровья человека.

Ключевые слова: одежда, декоративные украшения, пластиковое и микропластиковое загрязнение, экосистема, устойчивая мода, ПВХ-клеи, Fast Fashion.

Abstract: This article reveals the significance of decorative embellishments in clothing and their negative impact on the environment. Based on the analysis of collections from global and national brands, it examines the use of embellishments in the artistic design of garments, their types and composition, as well as their influence on consumer preferences. Particular attention is paid to plastic and stone decorations, which act as factors of environmental pollution, contribute to the accumulation of textile waste, and pose a threat to human health.

Keywords: clothing, decorative embellishment, plastic and microplastic pollution, ecosystem, sustainable fashion, PVC adhesives, Fast Fashion.

Bugungi kunda inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish zarurati ahamiyati ortib bormoqda va bu muammo dizayn sohasiga ham kiradi. “Journal of Cleaner Production” nomli xalqaro jurnal moda sanoatining atrof-muhitga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha yuzlab ilmiy maqolalarni nashr etadi. Jurnalning 2020-yilgi “Fast Fashion (Tez moda)ning ekologik narxi” maqolasining qisqacha mazmuni tez moda tendensiyalari, shu jumladan ko‘p miqdordagi bezaklar bilan ishlov berilgan vaqtincha modaga oid kiyimlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini tahlil qiladi.¹ Shuningdek, sanoatning ishlab chiqarish va iste’mol modelining jiddiy ta’siri, jumladan, katta to‘qimachilik chiqindilari, sezilarli darajada suv iste’moli, kimyoviy ifloslanish va

global ta'minot zanjiri bo'ylab yuqori CO₂ emissiyasini ta'kidlaydi. U Slow Fashion (sekin moda) ishlab chiqarish, barqaror amaliyotlarni qo'llash va halokatli ekologik oqibatlarini yumshatish uchun iste'molchilarning xatti-harakatlarini kamroq xarid qilish va kiyimning xizmat qilish muddatini uzaytirish yo'li bilan "sekin moda" ga o'tishni targ'ib qilib, tezkor moda biznes modeliga tub o'zgarishlar kiritishni ta'kidlaydi. Shu bilan birga ushbu jurnal "Barqaror moda strategiyalari" ni quyidagicha ta'riflaydi:

"Barqaror moda strategiyasi mahsulotni ishlab chiqarish, foydalanish va yo'q qilish bilan bog'liq muayyan ekologik, axloqiy va ijtimoiy ta'sirlarni kamaytirishga yordam berish uchun dizayner tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ramkali yondashuv hisoblanadi. Dizayn amaliyotida barqaror strategiyalardan foydalanish bilan bog'liq tadqiqotlar dastlab sanoat dizayni doirasida paydo bo'ldi va so'nggi o'n yil ichida ushbu strategiyalarning ko'pi moda dizaynerlari tomonidan o'rganildi va qabul qilindi".¹

Barqaror moda sohasining eng nufuzli olimi va amaliyotchilaridan biri Kate Fletcher (London College of Fashion professori) o'zining "Sustainable Fashion and Textile Design Journeys"(2014) nomli kitobida modaning jamiyatdagi o'rnini va u targ'ib qilayotgan ba'zi qadriyatlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida ko'rib chiqadi. Ushbu qadriyatlar barqarorlik maqsadlariga putur yetkazishi, qo'llab-quvvatlashi yoki ularga befarq bo'lishi mumkinligi va mahalliy ishlab chiqarish va modada dizaynning afzalliklari haqida gapiradi. Masalan, Zara global ta'minot zanjirida mahalliy, kichik ishlab chiqarishning afzalliklaridan foydalanishga muvaffaq bo'ldi. Tezlik bobida modaga qarashni vaqtga asoslangan nuqtai nazardan o'zgartirish barqarorlikni qanday qo'llab-quvvatlashi ko'rib chiqiladi. Bu tezkor moda etikasining hozirgi hukmronligiga qarshi bo'ladi. Fletcher sekin moda, sekin dizayn va mahsulotning chidamliligi kabi bir qator tushunchalarni qamrab oladi. U "Ko'pgina ta'minot zanjirlari tomonidan taqdim etilgan yuqori hajm, yuqori xilma-xillik, arzon kiyim va to'qimachilik - iste'molchilarning ekologik toza xatti-harakatlarini qabul qilish motivatsiyasini tez-tez buzadi" deb yozadi.²

Aylanma iqtisodiyot doirasida barqaror modani targ'ib qilish muhim zamonaviy mavzudir, shu jumladan, Aalto Universiteti (Finlandiya) professori Dr. Kirsi Niinimäki "Sustainable Fashion in a Circular Economy" (2018) nashrida moda industriyasidagi turli darajadagi aylanmalar haqidagi zamonaviy tadqiqotlarni taqdim etadi.¹ Dizayn, iste'mol, biznes va sanoat mutaxassisleri modani ishlab chiqarish va iste'mol qilishda aylanaga qanday qilib turli yo'llar bilan yondashish mumkinligini tushuntiradilar. Ushbu matnlar to'plami hozirgi vaqtda moda sanoatiga aylanma iqtisodiyot doirasida barqaror transformatsiya amaliyotini qo'llashga ta'sir etayotgan yangi, tanqidiy fikrlashni ta'kidlaydi. Nashr quyidagi mavzularga bag'ishlangan: Moda iste'molining o'zgaruvchan jarayoniga iste'molchilarni qanday kiritish kerak? Modani aylanma tarzda o'zgartirish uchun yangi dizayn va biznes strategiyalari, sanoat darajasida materiallarni qayta ishlash va qayta ishlashni o'z ichiga olgan aylanaga tizimli yondashuvni ishlab chiqishni taklif etadi.

Kiyimlar yangi dizaynini yaratishda dekorativ bezaklar orqali mahsulotning xilma-hilligiga erishiladi. Dekorativ bezaklar va aksessuarlar - bu tugma, tugmacha mix (knopka), kashta, tasma, lenta, jiyak, kantlar, munchoq, payetka, shisha toshlar bo'lib, dizaynga o'ziga xoslik baxsh etuvchi elementlardir. Ba'zan aynan shu unsurlar kolleksiyaning mohiyatini bo'rttirib ko'rsatadi va ochib beradi. Boshqa omillar singari dekor elementlarini tanlash, ularni qo'llashga, ularning kolleksiya g'oyasiga mosligini ta'minlashga e'tibor berish muximdir.¹ Biroq, bezaklarning libos loyihalashdagi o'rnini va shu bilan birga milliy qadriyatlarni yanada namoyon etishi bilan bir qatorda ularning atrof-muhitga zararlari ham yo'q emas. Bir qancha toshli bezak elementlarining liboslarga salbiy ekologik ta'siri, birinchi navbatda, ularning moddiy tarkibi va ularni ishlab chiqarish va yo'q qilish jarayonlaridan kelib chiqadi. Ko'pincha plastmassadan tayyorlangan bezaklar plastik

ifloslanish, mikroplastik ifloslanish va issiqxona gazlari chiqindilariga hissa qo'shadi. Ular, shuningdek, tashlab yuborilganda to'qimachilik chiqindilariga qo'shiladi. Yuqori moda brendlari (luxury fashion) bezaklarni biriktirishda an'anaviy PVX yelimlardan voz kechib, ekologik va chidamli texnologiyalarga ustuvorlik beradilar. Brendlar asosan toksik bo'lmagan biopolimer va tabiiy asosli yelimlardan foydalanib, barqaror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yechimlarni tatbiq etmoqda. Kichik ishlab chiqaruvchilarda esa narx va tezkorlik asosiy mezon bo'lib, PVX yelim, silikon yoki oddiy kimyoviy asosli yelimlardan keng foydalaniladi. Bu usullar arzon va qulay bo'lsa-da, ekologik talablarga javob bermaydi hamda bezaklarning uzoq muddatli chidamliligini ta'minlamaydi.

Quyida ularning turli jihatdan zararlarini ko'rish mumkin;⁵

1. Plastik ifloslanish va mikroplastmassalar:

Ko'pgina munchoqlar plastmassadan, xususan, doimiy ifloslantiruvchi bo'lgan PVX (polivinilxlorid) dan tayyorlangan. Munchoqlar sindirilganda yoki tashlab yuborilganda, ular mikroplastiklarga bo'linishi mumkin. Mikroplastmassalar tuproq va suv manbalarini ifloslantiradi, ekotizimlarga zarar yetkazadi va potentsial ravishda oziq-ovqat zanjiriga kiradi. Kiyimlarni munchoqli bezaklar bilan yuvish mikrofiberlarni oqava suvga chiqarib, dengizning ifloslanishiga hissa qo'shishi mumkin.

2. Issiqxona gazlari emissiyasi:

Shisha toshli bezaklar ishlab chiqarish, ayniqsa sintetik materiallardan, issiqxona gazlari chiqindilariga olib keladigan energiya va resurslarni talab qiladi. Moda sanoati, jumladan, bezakli kiyimlar ishlab chiqarish global uglerod chiqindilariga sezilarli hissa qo'shadi.

3. To'qimachilik chiqindilari:

Bezakli kiyimlar o'zgaruvchan tendentsiyalar tufayli kamroq bardoshli yoki kerakli bo'lishi mumkin, bu esa muddatidan oldin yo'q qilinishiga olib keladi. Tashlab ketilgan kiyimlar, shu jumladan bezak munchoqlar ko'pincha axlatxonalarga tushadi va u yerda uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

To'qimachilik mahsulotlarini utilizatsiya qilish, shuningdek, kosmik va kimyoviy moddalarning potentsial yuvilishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

4. Suvning ifloslanishi:

To'qimachilik mahsulotlari, jumladan, bo'yash va pardozlash jarayonlari suvni ifloslantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Ba'zi materiallardan tayyorlangan bezak toshlar suv tizimlariga zararli kimyoviy moddalarni chiqarishga hissa qo'shishi mumkin. To'qimachilik ishlab chiqarishda ishlatiladigan bo'yoqlar va kimyoviy moddalar suv manbalarini ifloslantirishi, suv hayotiga ta'sir qilishi mumkin.


5. Inson salomatligi bilan bog'liq muammolar:

Bezaklarda ishlatiladigan ba'zi materiallar, masalan, PVX, ularning hayoti davomida zararli kimyoviy moddalarni chiqarishi mumkin, bu esa inson salomatligiga ta'sir qiladi. Ifloslangan suv va oziq-ovqat manbalari orqali mikroplastmassalarga ta'sir qilish salomatlikka potentsial ta'sirlar haqida xavotir uyg'otadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bezaklar kiyim-kechaklarga estetik qiymat qo'shsa-da, ularni ishlab chiqarish, ishlatish va yo'q qilish ularning moddiy tarkibi va jarayonlari tufayli atrof-muhit va inson salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Jahon brendlarining bezaklardan foydalanishga bo'lgan munosabatini o'rganish davomidagi tadqiqotda ularning kolleksiyalari tahlili natijasi quyidagicha ko'rinishda bo'ldi: Umumiy hisobda 26 ta dunyodagi turli narx segmentidagi brendlarning 2025-yil bahor-yoz uchun mo'ljallangan pret-o-porte yo'nalishidagi kolleksiyalaridagi liboslari brendlarning internet saytlaridan o'rganib

chiqildi. Umumiy o'rganilgan liboslar soni 1780 ta bo'lib, ulardan 99 ta libosga turli xil (toshli, kashta, print, aplikatsiya) bezaklar berilgan va bu umumiy kolleksiyadagi liboslarning atigi 5,6% ni tashkil etadi (1-rasm). Diagrammada ham har bir brendning umumiy kolleksiyadan bezakli liboslari miqdori sezilarli darajada kamligi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki, zamonaviy modaning taniqli, mashhur brendlari ham bugungi kunda ekologik omillar sabab bezaklardan minimal darajada foydalanishni afzal ko'rmoqda. Brendlar orasida bezaklardan nisbatan ko'proq foydalangan brend Chanel bo'lib, kolleksiyadagi jami 77 ta libosning 18 ta modelida toshli bezaklardan foydalanganligi aniqlandi.



1-Rasm. Jahon brendlari analizi solishtirma tahlili.

Jahon brendlarini o'rganish bilan bir qatorda milliy brendlarimizdagi dekorativ bezaklarning ham tahlili amalga oshirildi. Asosan bezak bilan boyitiladigan kelinlik liboslari kolleksiyalarini yaratuvchi brendlar tanlab olindi (2-rasm). Bugungi kunda yurtimizda to'y-hashamlar uchun yuqori darajadagi dab-dabalar bilan bir qatorda kelinlar ansambllari ham hashamat va narx borasida ilgarilab bormoqda. Har bir bo'lajak kelinlarning sarposida kamida 5 tadan uchraydigan turli ko'rinishda tikilgan va bezak berilgan choponlar va ansambllar to'y marosimlarining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Bu urf-odatlar milliylikimizni namoyon qilishi va saqlab qolishi mumkin, ammo ushbu liboslarning keyingi hayoti nima bo'ladi? Ularning ba'zilar bichimidan tortib, bezagigacha afsuski "bir martalik" ishlatiladigan mahsulotga o'xshaydi.



2-Rasm. Milliy brendlardagi kelinlik obrazlaridan namunalar.

Ya'ni, o'rganilgan 20 dan ortiq milliy brendlarning deyarli ko'pchiligi kelinlar uchun mana shunday liboslar yaratishadi, liboslar milliy matolardan bo'lib, tabiiy tolalardan tayyorlangan va ular keragidan ortiq darajada bezatilgan. Ba'zi kolleksiyalar bor deyarli matoning bo'sh joyi qolmagan, foydalanilayotgan bezaklarning ham deyarli 95% i toshli bezaklar hisoblanadi. Liboslarning ekspluatatsion ta'lablari o'rganilmagan. Siluet jihatdan ham liboslar qumsoat shaklda bo'lgani sababli to'ydan keyin kelinlar ulardan uzoq vaqt foydalana olishmaydi, sababi kelinlardagi garmonial o'zgarishlar sabab vazn ortish holatlari ko'p uchraydi va bu libosdagi noqulaylikni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni hisobga olib, quyidagicha xulosa va tavsiyalar taklif qilish mumkin. Ekologik standartlarga muvofiq modali kiyimlarni loyihalash usullarini taklif etish va aniqlash uchun bir necha yechimlarni ko'rsatish mumkin. Jumladan, "chiqindisiz moda" qadimdan kimonolar, sarilar va xitonlar kabi milliy liboslarda qo'llanib kelingan. Zamonaviy tendensiyalardan biri bu 'Klassik' uslub bo'lib, ularning foydalanish muddati ko'proq. Uzoq muddatli foydalanishga qaytish – bu barqaror natijaga qaratilgan, insonlarning kelajak ehtiyojlarini inobatga olgan dizayn konsepsiyasidir. Iste'molni qisqartirishga qaratilgan va ekologik standartlarga muvofiq modali kiyimlarni loyihalashning yana bir usuli zamonaviy kiyim dizaynining "ko'p funksiyali" bo'lishidir. Iste'mol ekologiyasining muammosi dizayn vazifalarida sifatli o'zgarishga olib keladi, bu yerda asosiy e'tibor shakl va funksiyani takomillashtirishdan ko'ra, ortiqcha dizayn elementlarini qisqartirish, materiallar va texnologiyalarni qayta ko'rib chiqishga olib keladi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. "The Journal of Cleaner Production"/Print ISSN: 0959-6526Online ISSN: 1879-1786
2. "The environmental price of fast fashion". April 2020/Nature Reviews Earth & Environment 1(4):189-200/DOI:10.1038/s43017-020-0039-9
3. Tonya Boone (2009) Sustainable Fashion and Textiles: Design Journeys by Kate Fletcher (Earthscan, 2008), Fashion Practice, 1:2, 271-274
4. Niinimäki, K. (Ed.) (2018). Sustainable Fashion in a Circular Economy. Aalto ARTS Books. <http://urn.fi/URN:ISBN:978-952-60-0090-9>
5. F.Z. Ataxanova. Dizayn-loyihalash. -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 368 bet. ISBN 978-9943-11-890-4

6. Global Commodity Chains and Fast Fashion: How the Apparel Industry Continues to Re-Invent Itself. June 2014 *Competition & Change* 18(3):246-264.
DOI:10.1179/1024529414Z.000000000059
7. <https://www.scribd.com/document/672813816/A-practical-guide-to-sustainable-fashion-by-Alison-Gwilt>
8. https://www.researchgate.net/publication/340635670_The_environmental_price_of_fast_fashion
9. https://acris.aalto.fi/ws/portalfiles/portal/32741472/sustainable_fashion.pdf